

Received: 1 September 2026 Accepted: 3 September 2026 Published: 5 September 2026

Vol. 5 • No. 9 • 2026

KICHIK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKILLASHTIRISH VA O'TKAZISHDA ANDRAGOGIK JIHATDAN YONDASHUV

Toshbekov S.R.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi
sikli boshlig'i
DOI: 10.5281/zenodo.22640363

ABSTRACT: Mazkur maqolada muallif kichik mutaxassislarni tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkillashtirish va o'tkazishda andragogik jihatdan yondashuv.

Keywords: Andragogik, ta'lim, Innovatsion, yondashuv, adaptatsiya, katta yoshdagilar, foydalanish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo'llagan bayram tabrigida ta'kidlaganidek, «Barcha bo'g'indagi professional harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bizning e'tiborimiz markazida bo'lib qolishi zarur.

Bu vazifani amalga oshirishda biz ta'lim jarayoniga eng yangi usul va texnologiyalarni joriy etishimiz, o'quv auditoriyalarini zamonaviy trenajyorlar, o'quv va laboratoriya asbob-uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlashimiz lozim». Mazkur vazifalarning samarali hal etilishida harbiy kadrlarning kasbiy, intellektual salohiyatining yuksakligi, katta yoshdagi tinglovchilarning fikrlash mahoratining rivojlanganligi muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim tizimi shaxsni shakllantirishi va rivojlantirishi uchun, davlat standarti talablari asosida hamda jahonning ilg'or ta'lim tizimi darajasida kadrlar yetishtirish uchun avvalo tinglovchining har tomonlama mukammal bo'lishini talab qiladi. Ayniqsa, bunda harbiy pedagogning mas'uliyati katta.

Chunki harbiy ta'lim muassasalarida tayyorlanadigan hozirgi tinglovchilar faqat ma'lum bir sohada chegaralangan bilimlar egasi bo'lgan tor ixtisosli mutaxassis emas, balki chuqur intellektual salohiyatga ega bo'lgan, keng dunyoqarashli, yuksak madaniyatli va ma'naviyatli inson, o'z bilimi, shaxsiy namunasi bilan boshqalarga o'rnak bo'la oladigan tafakkurli va mahoratli tinglovchi bo'lishi zarur.

Malakali kadrlarni tayyorlashda hozirgi kun talablariga mos ravishda yuqori malakali, har

tomonlama rivojlangan, zamon talablariga javob bera oladigan, chuqur bilimli, o'z sohasini sevadigan, mustaqil fikrlay oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir.

Innovatsion yondashuv - ensiklopedist olimlar, xorijiy davlatlar tajribasi o'rganish, tatbiq etish va moslashtirish demakdir.

Innovatsion yondashuv quyidagi shakllarga bo'linadi:

akmeologik yondashuv;
aksiologik yondashuv;
kreativ yondashuv;
refleksiv yondashuv;
texnologik yondashuv;
kompetentli yondashuv;
andragogik yondashuv.

Andragogika - (grekcha «*Andros*» - katta odam va «*agog*» - rahbarlik, ta'lim) pedagogika fani sohalaridan birining nomi bo'lib, kattalarni o'qitish va ta'limi, tarbiyasining nazariy va amaliy muammolarini qamrab oladi. Atama birinchi marta nemis ta'lim tarixchisi K. Kapp tomonidan (1833 yilda) kiritilgan.

Andragogik yondashuv:

ta'lim va ta'lim oluvchi o'rtasida yuksak professionallikka, ya'ni kasbiy yetuklikka erishish; qadriyatlar va an'analarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish. Qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy ta'minot, aksiologik - qadriyat mohiyati; kattalarni yosh xususiyatlarini hisobga olib o'qitish san'ati va ilmi.

Ularni bilimlarini oshirish, texnika va kasbiy mahoratlarini takomillashtirish.

Andragogik yondashuv uchta yo'nalishga asoslangan holda tashkillashtiriladi:

adaptatsiya;
kompensatsiya;
rivojlantiruvchi.

Adaptatsiya - tinglovchilarning ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, yangiliklar, pedagogik yondashuvlarga moslashtirish va ko'niktirish.

Kompensatsiya - pedagogik texnologiyalar interaktiv ta'lim va interaktiv metodlar bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini yangi fikrlar, amaliy mashq, treninglar orqali to'ldirish hamda boyitish.

Rivojlantiruvchi - o'quv jarayonini tashkil etish metodikasi va texnikasi, pedagogik faoliyati va mahorati bo'yicha tajribalarini shakllantirish.

Kattalar bir shart bilan o'qishga rozi bo'ladilar agar o'qish ularga ijtimoiy sohada yoki hayotda qandaydir yordam bersa.

Bundan shunday xulosa qilish mumkin:

biz tinglovchiga, kattalarga nima uchun o'qish kerak ekanligini tushuntirishimiz zarur;

kattalar o'zlari qaror qabul qilishni va buning uchun javobgarlikni o'z zimmlariga olishlarini bilishlari zarur;

kattalar foydalanish mumkin bo'lgan hayotiy tajribalarga tayanishlari zarur;

katta yoshdagi tinglovchilar o'qishni xohlashlari kerak. Shuning uchun ta'lim olishga ichki intilish sharoitini yaratish zarur;

katta yoshdagilar amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan bilimlarnigina o'rganadilar, «ular bu menga hozir qanday yordam berishini» bilishi zarur;

katta yoshdagilar norasmiy vaziyatlarda yaxshiroq o'qiydilar, buni pedagog bilishi zarur;

katta yoshdagilarni baholash emas, yo'naltirish zarur.

Kattalarni o'qitishda o'ziga xos xususiyatga ega: o'zini mustaqil, o'zini o'zi boshqaruvchi shaxs sifatida biladi;

hayotning muayyan zaxirasiga ega, kasbiy, ijtimoiy tajribaga ega bo'lib, u tobora muhim ta'lim manbaiga aylanmoqda;

ta'lim uchun shaxsiy tayyorgarlik uning hayotiy muammolarini hal qilish va ta'lim yordamida aniq maqsadlarga erishish istagi bilan asoslanadi;

olingan bilim, ko'nikma, malaka va fazilatlarini tezda amalga oshirishni xohlaydi;

kattalarning o'quv faoliyati ko'p jihatdan «temperal», fazoviy, ichki, kasbiy va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi.

Katta tinglovchilar nigohida zamonaviy ideal andragog o'qituvchining obrazi. Andragog o'qituvchi:

xushmuomala;
ma'lumotli;

vazmin;
diqqatli;
talabchan (qat'iy, ammo adolatli);
murosa qobiliyatiga ega bo'lishi;
kompetent.

Tinglovchilarni faollashtirishga yo'naltirilgan interaktiv metodlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

muammoli savollarni paydo qilish;
aqliy hujum;

BBB - bilaman, bilib oldim, bilmoqchiman.

Aqliy hujum metodi cheklangan qisqa vaqt ichida berilgan murakkab intellektual vazifani hal qilish bo'yicha ta'lim oluvchilar guruhining ijodiy aqliy mehnati hisoblanadi.

Bu metodning asosiy mohiyati, har qanday, hatto kutilmagan, fantastik ko'ringan g'oyalarni ham hech qanday tanqidsiz ko'rib chiqish, tahlil qilish, baho berish, taqqoslash va oxir-oqibatda eng maqbul yechim variantini tanlashdan iboratdir.

Rivojlanish - tinglovchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlarining bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar xususiyatlari va harbiy xizmat sharoitlariga muvofiq maqsadli takomillashuvi jarayonidir.

Anragogika interaktiv metodlardan foydalanish uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Interaktiv - so'zi inglizcha «*Inter*» - o'zaro, «*act*» - harakat, ya'ni birgalikda harakat qilmoq ma'nosini anglatadi.

Interaktiv ta'limning mohiyati - bir-biridan o'rganishga yo'naltirilgan ta'limdir. Ya'ni, *Interaktiv ta'lim bu* - strategiya va metodologiya, muntazam muloqotga asoslangan uslublar tizimi, hamkorlikdagi va faol ishtirokdagi ta'lim hisoblanadi.

Interaktiv ta'lim asosan guruh bo'lib ishlashga qaratilgan.

Guruh bo'lib ishlash funksiyasi sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

tashkiliy;
tarbiyaviy;
metodik;
amaliy.

Guruh bo'lib ishlash modeli quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

muhit (psixologik, pedagogik, ijodiy, o'ziga ishonch, ishchanlik, mas'uliyat);

talab (bevosita tajriba, o'rganish);

tamoyil (mehnat mahorat, intellekt va motiv);

harakat (verbal va nonverbal aloqa, munozara qilish, ijodiy va qirrali fikrlash konsensusti qidirish, qaror qabul qilish, baholash va aks ettirish).

Katta yoshdagi tinglovchilarning quyidagi qobiliyatlari ularning fikrlashini shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari hisoblanadi:

axborot hajmi yetarli bo'lmagani holda noaniq muammoli vaziyatdan masalalarni belgilab olish va to'g'ri izohlash;

hal etiladigan muammo bo'yicha ilmiy-texnik axborotni aniq maqsad yo'nalishda izlash;

nostandart original g'oyalarni yaratish va gipotezalarni oldinga surish;

mumkin bo'lgan barcha variantlarni har tomonlama ob'ektiv baholash asosida ular ichidan ratsional (maqbul) yechimni aniq maqsadli izlash;

tizimli tadqiqot natijalari bo'yicha xulosa va takliflarni ma'lum ma'no va mantiq asosida ifodalash;

tadqiqot ob'ektlarining rivojlantirishini bashorat qilish;

muammoni yechishda yuzaga keladigan (ma'muriy, texnikaviy va boshqalar) ziddiyatlarning nostandart ichimini topish, shakllantirish va hal etish;

xususiy fikrlashdagi inersiyani yengib, xilma-xil fikrlash.

Guruhiy ishlashda diqqatni jalb etish usullari quyidagilardan iborat:

tashqi ko'rinish;

nutq (nutq va ohangdorlik);

bir lahzalik sukut;

harakatli;

belgili;

aralash.

Insondagi bilimlarning hosil bo'lishida undagi 5 ta sezgi a'zolari vositasida qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotlar nisbati quyidagicha:

ko'rish a'zosi orqali - 83%;

eshitish a'zosi orqali - 11%;

hid bilish a'zosi orqali - 3,5 %;

teri sezgisi orqali - 1,5 %;

ta'm bilish a'zolari orqali - 1 %;

Turli sezgi azolarimiz orqali ishtirokida o'zlashtirilgan axborot oradan 2 hafta o'tgandan so'ng quyidagi miqdorda eslab qoladi:

o'qiganimizning 10 foizi;

eshitganimizning 20 foizi;

ko'rsatganimizning 30 foizi;

ko'rgan va eshitganimizning 50 foizi;

gapirganimizning 80 foizi;

gapirgan va amalda bajarganimizning 90 foizi.

Bundan insonning eslab qolish qobiliyati axborotni qaysi usullarda va qaysi sezgi a'zolari vositasida o'zlashtirganiga bog'liq ekanligi ma'lum bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, andragogik yondashuvdan kelib chiqib, ta'lim muassasalarida yoshi kattalarning fiziologik va psixologik jihatlarini inobatga olib, harbiy ta'lim muassasalariga ta'lim tizimiga tatbiq etish kerak.

Takliflar :

1.Kattalarni o'qitishda o'quv vaqtlarini qisqartirishni (45 min);

2. O'quv mashg'ulotlarini nostandart tarzda o'tkazish (har xil treninglar o'tkazishni);

3.Amaliy mashg'ulotlarni musobaqa ko'rinishida tashkillashtirishni;

4.Tinglovchining fikrlash mahoratini tinimsiz takomillashtirib borish hamda professional darajada rivojlantirish;

5.O'z ixtisosligi bo'yicha chuqur bilim, mustahkam ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi bilan birga, keng dunyoqarashga va rivojlangan ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish, bilim, malaka, ko'nikma hamda ular asosida shakllantirish va rivojlantirish orqali mustahkamlashni;

6.Ta'lim oluvchilar bilan doimo erkin muloqot qila olishi, har bir katta yoshdagi tinglovchiga individual shaxs sifatida yondashishni;

7.Har bir ta'lim oluvchiga nisbatan beriladigan xolisona va adolatli baho (ijobiy yoki salbiy) pedagog va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi ko'priklarni ekanligini unutmashlikni nazarda tutishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ochiq manbalardagi harbiy-texnik tahliliy sharhlar va hisobotlari - 2026 yil.
2. Andrgogika o'qitish bo'yicha qo'llanma. Toshkent - 2023 yil.
- 3.Asqarova O'. Abdullayev M.A., Boltayeva M. Andrgogika o'quv qo'llanma - 2014 yil
4. Pazilova M.E Andrgogika darslik .
- 5.Usarov J.E., Qodirov I.D., Usarova N.B. Andrgogika. O'quv qo'llanma. -2025 yil.